



## Linguistic analysis of some emotional concepts represented in phraseological units of the Spanish language

Yusuf NURMUKHAMMADOV<sup>1</sup>

Samarkand State Institute of Foreign Languages

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

#### Keywords:

konsept,  
emotsiya,  
qo'rquv,  
qayg'u,  
frazologik birlik,  
frazosemantik maydon.

### ABSTRACT

The general nature of emotions does not negate their national specificities. The emotional states of Homo sapiens are described differently in the language of each linguistic and cultural community. The way universal emotions are expressed in certain situations is manifested in individuals through a national-cultural form, shaped by existing cultural norms. The purpose of this article is to explore the national-cultural conceptualization of these emotions in Spanish linguoculture through a linguistic-cognitive analysis of phraseological units representing the emotions of sadness and fear.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp251-260>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ispan tili frazeologik birliklarida reprezentlangan ayrim emotsional konseptlarning lingvokognitiv tahlili

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

konsept,  
emotsiya,  
qo'rquv,  
qayg'u,  
frazologik birlik,  
frazosemantik maydon.

Emotsiyalarning umumiylik xususiyati ularning milliy o'ziga xosliklarini inkor etmaydi. Har bir lingvomadaniy jamoa lisonida Homo sapiencening emotsional holatlari turlicha tavsiflanishi, muayyan vaziyatlarda universal emotsiyalarning tabiati mavjud madaniy me'yorlardan kelib chiqib individlarda milliy-madaniy shaklda namoyon bo'ladi. Qayg'u va qo'rquv emosiylarini reprezentlovchi frazeologik birliklarning lingvokognitiv tahlili orqali ispan lingvomadaniyatida ushbu emosiylarning milliy-madaniy konseptuallashuvini ochib berish maqolaning maqsadi hisoblanadi.

<sup>1</sup> PhD in Philology, Associate Professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

# Лингвистический анализ некоторых эмоциональных концептов, представленных во фразеологических единицах испанского языка

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

концепт,  
эмоция,  
страх,  
печаль,  
фразеологизм,  
фразеосемантическое  
поле.

Общий характер эмоций не отменяет их национальной специфики. Эмоциональные состояния Homo sapiens по-разному выражаются в языке каждой лингвокультурной общности; универсальные эмоции в определённых ситуациях проявляются у индивидов через национально-культурные формы, исходя из норм, принятых в данной культуре. Целью статьи является выявление национально-культурной концептуализации этих эмоций в испанской лингвокультуре посредством лингвокогнитивного анализа фразеологизмов, репрезентирующих эмоции печали и страха.

## KIRISH

Atrof-borliqqa nisbatan munosabatda paydo bo'ladigan inson kechinmalari emotsiyalar doirasini tashkil etadi. Emotsiyalar paydo bo'lishining muhim sharti – insonlarning jamoaviy faoliyati va shaxsning ijtimoiylashuvi hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jamoaviy psixologiyaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, emotsiya avvalambor psixologik fenomen. Shu sababli, avvalambor psixologiya fanining tadqiqot obyekti sanaladi. Emotsiyalar g'arb psixologlari M. Arnold, P. Ekman, K. Izard, N. Frijda, Dj. Grey, U. Djeys, O. Morer, K. Otli, U. Makdauell, P. Djonson-Lerd, Dj. Panksepp, R. Pluchik, S. Tomkins, Dj. Uatson, B. Ueyner tomonidan o'rganilib, juda xilma xil mezonlar asosida tasniflangan. Emotsiyalar psixologik tasniflanishiga ko'ra bazaviy va periferik kategoriyalarga ajratiladi. P. Ekman quyidagilarni bazaviy emotsiyalar: *quvonch, qayg'u, g'azab, qo'rquv, nafrat, hayrat* va *jirkanish* sifatida tasniflagan. K. Izardga ko'ra quyidagilar: *lazzatlanish – bu quvonch, qiziqish – hayajon, ajablanish – qo'rquv, qayg'u – azob chekish, g'azab – qahr, qo'rquv – dahshat, jirkanish – nafratlanish, uyat – kamsitilish* asosiy emotsiyalar hisoblanadi [5,24].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Emotsiyalar ko'pincha konseptual mazmundan xoli his yoki ruhiy kechinma sifatida tushunilib, semantika va konseptual struktura ustida tadqiqot olib boruvchilar e'tiboridan chetda qoldi. O'tgan asrning 70-yillarida emotsiyalarga qiziqish jadal orta boshladi va tilshunoslar tomonidan inson fundamental emotsiyalarini belgilab olish masalasi ilgari surildi va ma'lum bo'ldiki, muayyan til doirasida emotsiyalarni ifodalovchi so'zlar bilan ajratilganlar umumiylik maqomiga ega bo'lmaydi [3,119]. Turli tillarda emotsiyalarni qiyoslash asosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida g'azab, quvonch, g'am, qo'rquv emotsiyalari universal hodisa sifatida qabul qilindi (Izard 1980; Ekman, Friesen 1981:79-80; Krasavskiy 2001:33). Albatta, emotsiyalarning umumiylik xususiyati ularning milliy o'ziga xosliklarini inkor etmaydi. Har bir lingvomadaniy jamoa lisonida Homo sapiencening emotsional holatlari turlicha tavsiflanishi, muayyan vaziyatlarda universal emotsiyalarning tabiati mavjud madaniy me'yorlardan kelib chiqib individlarda namoyon bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Jahon tilshunosligida emotsiyalar tilda ifodalanishi turli aspektlardan o'rganilgan (Babenko 1989; Vebiskaya 1997, Krasavskiy 2001; Fomina 1996; Shaxovskiy 1988; Buck 1984; Buller 1996; Zillig 1982 va boshqalar). Verbal belgisi (leksema va turg'un birikmalar shaklidagi) emotsiyalar tilshunoslar uchun ahamiyat kasb etadi. Chunki ular fikrlar paydo bo'lishi, rivojlanishi, anglanishi va xotirada saqlanishi uchun vosita bo'lib, ko'plab milliy madaniy axborotlarni o'zida saqlaydi. A.Vebiskaya emotsiyalar olami fragmentlarining konseptuallashuvi har bir lingvomadaniy jamoada xoslanish bilan amalga oshirishini ingliz, polyak, yapon va rus tillari misolida [3, 119-179], A.Vebiskaya emotsiyalar va emotsional holatlarni ularni nomlovchi bo'lmagan va intuitiv tushunarli so'zlar (*bilmoq*, *ko'rmoq*, *his qilmoq* va *hokazo*)ga asoslangan ssenariy va prototipik skript kognitiv modellar bilan tavsiflashga urinib ko'rdi va ushbu primitivlarni saqlovchi lisoniy emotsiyalarning prototipik ssenariysi bilim, motivatsiya va emotsiyani yaxlit reprezent format ko'rinishda taqdim etgani uchun anchayin istiqbolli ekanligini ta'kidladi [3, 119-135]. N.Krasavskiy emotsional konseptlarni rus va nemis lingvomadaniyatlarida ifodalanishini qiyoslash orqali ochib berdi [6,29]. Emotsiyaning noverbal (inson affektlari, emotsional holatlar, kechinmalarni tasvirlovchi mimika va turli imo-ishoralar) belgisi shakli o'zida aksionallikni ifoda etadi. Emotsiyalar emotiv (eksplikant) til belgilari bilan obyektivlanuvchi - *affektiv* va ratsional til belgilari bilan obyektivlanuvchi - *epistemologik* sinflarga ajratiladi. Emotsional frazeologik konseptlar pragmatik-semasiologik nuqtai nazardan uch sinfga tasniflanadi: frazeologik nominantlar, frazeologik deskriptor va frazeologik eksplikantlar. Voqelikni bilvosita ifodalovchi murakkab kompleks belgi strukturali frazeologizmlarda voqelikni qayta tushunishning konnotativlik, emotivlik belgilariga ega bo'lgan semantik jarayon voqe bo'ladi. Frazeologik nomlashda lingvomadaniy jamoaning muayyan rivojlanish bosqichidagi tamaddun va madaniyat fenomenlari verballashadi, spetsifik bilish tajribasi, dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari eksplitsit ifodalanadi. Bilvosita nomlashning lingvomadaniy tahlili olam obyektlari nomlarining biridan ikkinchisiga ko'chishini motivatsion asoslarini, milliy madaniy o'ziga xos xususiyatlarini ochishga imkon beradi.

Emotsiyalarning milliy o'ziga xos tabiati, konseptuallashuv jarayonlarini o'rganishdan oldin ma'lum bir tushunchalarni yoritish maqsadga muvofiq. *Emotsiya* (*lat. emovere* so'zidan kelib chiqib, mazkur leksema *e-* harfi *ex-*dan olinib "tashqari(ga)da" va *move* "harakat" semalarini ifodalaydi) – bu mavjud yoki mumkin bo'lgan vaziyatlarga va obyektiv dunyoga subyektiv baholash munosabatini aks ettiruvchi, o'rtacha davomiylikdagi psixik jarayondir. Baholashning subyektivligi emotsiyalar konseptuallashuvining etnospesifikligi ko'rsatadi. Emotsiyalar turli lingvomadaniyatda xos leksemalar bilan ifodalanadi. Albatta, bu til belgilarida ma'lum bir farqli tomonlari borligi qiyosiy lingvistik tahlil natijalarini o'zaro taqqoslaganda namoyon bo'ladi.

Frazeologik birlik (FB)lar emotiv komponenti o'zida subyektning anglanuvchiga his-munosabatlari bilan bog'langan barcha ma'lumotlarni birlashtiradi. *Emotsional konsept* «odatda tushunchaviy asosga tayanuvchi, o'z arxitektonikasiga tushuncha, obraz va / yoki bahodan tashqari kommunikatsiya va refleksiya jarayonida ko'plab bir turdagi predmetlarga inson mayli munosabatlarini funksional o'rnini bosuvchi etnik, madaniy bog'langan, murakkab struktur-semantik, integrativ, verballashgan shakl» [6,29]. Til sathida emotsional konseptlarning milliy o'ziga xosligini yaqqolroq ko'rsatish ham leksik birliklarni ham frazeologik birliklarni yaxlitlikda o'rganishni taqozo qiladi. Bunda ichki shaklning assotsiativ-obrazli xarakteriga ega bo'lgan frazeologizmlar muhim ahamiyatga

ega. Ichki shakl «frazeologizm mazmun planiga birikkan obraz hamda til egalari tomonidan frazeologizm ma'nosining obrazli asosi, uni tashkil etuvchi so'z yoki morfemalar anglanishi» sifatida tavsiflangan (4, 134). FBlarning milliy – madaniy o'ziga xos xususiyatlari lingvomadaniy tadqiqotlarning eng qimmatli obyekti va olam lisoniy manzarasining (OLM)ning eng muhim qismi bo'lishiga sabab bo'ladi. Tilning etnos tabiati bilan chambarchas bog'liqligi emotsiyalar verballashuvida ularni etnos milliy xarakterining o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'laydi.

FBlardagi emotsiyalar qutblilik xususiyatiga ega bo'lib, subyektning salbiy va ijobiy psixoemotsional holatini va frazeologizmlar ma'nosida aks etgan obyektga emotiv munosabatini ifodalaydi. Inson emotsiyalari faqatgina hislarni ifodalamasdan, intellektual va bilish jarayonlarini ham yaxlitlikda namoyon qilishidan kelib chiqib, emotsiyalar juda murakkab konseptual tuzilishga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Emotsiyalarni frazeologik nomlash obraz-situativ motivlikga ega va bevosita xalqning dunyoqarashi bilan bog'langan bo'ladi. Vaziyat inson yashayotgan borliqdagi etalon va stereotiplarga mos ravishda ijobiy va salbiy baholanadi. Frazeologizmlarning o'zi ham madaniy stereotip rolini bajarib, avloddan avlodga xalq uchun xos dunyoqarash tarzini va madaniy-milliy an'analarni uzatadi. Bu ayniqsa xalq hayot falsafasining barcha kategoriya va tamoyillarini sentensiya shaklida tajassum etuvchi maqollarda yaqqol ko'rinadi.

Emotsiyalar konseptuallashuvida ikkita o'zaro bog'langan aspekt farqlanadi: emotsional kechinmalarning bevositaligi yoki his-holat (*aqldan ozmoq*) va subyektning obyektga munosabati yoki his-munosabat (*jon dilidan yaxshi ko'rmoq*). Masalan, *ichini mushuk tatalayapdi* frazeologizmi insonning muayyan psixoemotsional holati, achishtirib og'ritadigan qayg'u holatini anglatadi. Boshqalardan yashirilgan, chuqur ichki kechinmani nazarda tutadi. Bu holatda inson kuchli qayg'u hissini boshdan kechiradi. Bunday holat inson tomonidan quvvatlanmaydi, shu sababdan emotiv munosabat ma'qullamaslik xususiyatiga ega. His-munosabat frazeologizm ma'nosini talqin qilish va emotivlikning kognitiv markeri bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, *jin ursin turg'un* birikmasida shaxsning boshqa shaxsga g'azablanishi qo'pol shaklda namoyon bo'lib nafrat obyektidan tezroq qutilish istagi ifodalanayapdi. Emotsiya-holatlar frazeologizmlar denotativ ma'nosi negizida yotadi: inson xarakteri (*quyon yurak, bag'ri tosh, jahli tez*), inson jismoniy holati (*qora terga tushmoq, suratim yuribdi*), intellektual faoliyat (*miyasi g'ovlab ketmoq*), fizik harakat va ko'chish (*ichiga qurt tushmoq*).

Emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar semantikasi baho xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi: salbiy (g'azab, qayg'u, qo'rquv) va ijobiy (hayrat, quvonch, sevgi) bahoni ifodalovchi frazeologizmlar. Bizningcha, "hayrat" kabi hislarni ifodalovchi FBlni to'laqonli ijobiy emotsiyalar deb tasniflash to'g'ri emas. Bunday hislar maydon nuqtai nazaridan ijobiy va salbiy qutbli maydonlarning o'rta qismida, yanada aniqrog'i birinchi maydonga yaqinroq o'rindan joy oladi. Frazeologizmlarning baholash funksiyasi, ya'ni emotiv baho til pragmatikasi bilan bevosita bog'langan. Borliqdagi realiyani baholashda so'zlovchi asosan emotsional kechinmalarga tayanadi. Emotsiya va baho bir birini taqozo qiluvchi va bir biriga birikkan bo'ladi. Masalan, "bu yaxshi inson" kontekstida bahoni ratsional-mantiqiy ifodalash mumkin bo'lsa, emotivlik avtomatik ravishda o'ziga bahoni biriktirib oladi, mazmunni baholamasdan turib his - munosabatni ifodalashning imkoni yo'q. "Yaxshi –yomon" baho shkalasi nutqiy ifodaga baho beruvchi modal ramkaning asosi hisoblanadi. Emotivlik his-munosabat kontekstida "ma'qullash-ma'qullamaslik" diapozonida ishlaydi. "Ma'qullash-ma'qullamaslik" emotiv shkalasi nutqiy

ifodaga emotivlik beruvchi modal ramkaning asosi hisoblanadi. Emotivlikning semantik asosi subyektning anglatuvchiga his-munosabati ekanligidan kelib chiqsak, FBlar emotivligi frazeologizmlar ichki shakli, ya'ni frazeologizmlarning yaxlit ma'noviy asosida yotuvchi obraz-geshtalt bilan uyg'onadi va FBning signifikativ ma'nosining obrazli-assotsiativ aloqasini chaqiradi. Obrazli-assotsiativ asos emotsional reaksiya paydo bo'lishi uchun stimul hisoblanadi. Stimulsiz so'zlovchida "ma'qullash-ma'qullamaslik" diapozonidagi his-munosabat paydo bo'lishi mumkin emas. Emotsional reaksiyalar asosida emotsional holatni paydo qiluvchi inson tomonidan vaziyatga kognitiv baho berish yotadi[2, 115-117].

Ma'lumki, emotsiyalar murakkab fenomen va ular bir biri bilan ko'p qirrali aloqada bo'lganligi sababli ayni bir his turli emotsiyalarda voqe bo'ladi. Masalan, sevgi hisi quvonch, g'azab, qayg'u, qo'rquv va hokazo emotsiyalar spektrini paydo qiladi. Masalan, *yuragi qinidan chiqa yozdi* turg'un birikmasi ham tashvishlanish ham quvonch hislarini ifodalaydi. Muayyan lingvomadaniy jamoa milliy-madaniy dunyoqarashining ayrim qirralarini til sathi birliklari negizida ochib berish inson botiniy olamini lisoniy qoliplash tarzida, ya'ni emotsional konseptlar tahlili orqali samaraliroq bo'ladi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ispan lingvomadaniyatida qayg'u konsepti *tristeza* leksemasi bilan ifodalanadi va quyidagicha izohlanadi: «es estado de ánimo de la persona que es o está triste», «es una clase de dolor emocional o estado afectivo provocado por un decaimiento espiritual y expresado a menudo mediante el llanto, el rostro abatido, la falta de apetito, la lasitud etc. A menudo nos sentimos tristes cuando nuestras expectativas no se ven cumplidas o cuando las circunstancias de la vida son más dolorosas que alegres». Ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, *tristeza* ispan lingvomadaniyatida "dolor emocional" (*emotsional og'riq*), "decaimiento espiritual" (*ruhiy tushkunlik*), ekterior va interior psixofiziologik sememalari bilan obyektivlashadi. *Tristeza* leksemasi lotin tilidagi *tristitia* "g'am" dan kelib chiqib, lugatda davriy qo'llanishi shakllari va derivatlari quyidagicha qayd etilgan: *triste* (1220-50 yillarda), deriv. *Tristeza* (1250 yillarda), *Entristecer* (1251 yillarda), *Contristar*, *Tristura* (1335 yillarda). 'Tristeza' emotsiyasini ifodalovchi sinonimik qator 14 ta (*tristeza*, *pena*, *desconsuelo*, *aflicción*, *amargura*, *melancolía*, *pesadumbre*, *pesar*, *quebranto*, *tribulación*, *desdicha*, *nostalgia*, *cabanga* (amer.), *melarchía* (amer.)) leksik birliklardan iborat. Ushbu emotsiyaning antonimi *alegría* sanaladi. Qayg'u mikroparadigmasining birinchi va ikkinchi a'zolari maqol va matallarda faol qo'llaniladi. Lingvomadaniy tahlil uchun mavjud materiallardan foydalanib "*tristeza*" semantik maydoni quyidagi frazeo-semantik guruhlariga ajratildi:

1. Qayg'u – faol psixosomatik destruktiv tabiatlidir. "*Las penas no matan, pero rematan, o acaban* (aynan: qayg'u o'ldirmaydi, biroq bir yoqli qiladi yoki poyoniga etkazadi); "*Los pesadumbres no matan*" (aynan: o'kinch o'ldirmaydi) maqollarida jonlantirilgan *pena* va *pesadumbre* insonni somatik jihatdan o'ldirmasada, o'ldirishdan ham "og'irroq" davomiy intensiv psixofiziologik ta'sir kuchiga ega ekanligi haqidagi fikr o'z ifodasini topgan.

2. Qayg'u kauzatorli bo'ladi. "*La mucha tristeza mucho cuidado pon*" (aynan: ko'p tavajjuh ko'p qayg'uni keltiradi); "*Siempre la melancholia fue de la muerte pariente*" (aynan: odatda dilgirlik ota-onaning o'limidan kelib chiqadi) nutqiy ifodalarida qayg'uning produtsentlari ispan lisoniy ongida qayg'uning o'zi, o'lim yoki yaxshilikga yomonlik bilan javob qaytarish sanaladi. Antigumanizm orqali qayg'uni ifodalovchi maqollar: *al que le*

*duela que se queje* (aynan: shikoyat qilgan zarar topadi); *cegar como la judia de Zaragoza* (aynan: Saragosadagi yahudiy singari ko'r)

3. Qayg'u joylashadigan makon bor. *"Las tristezas del corazón salen al rostro"* (aynan: yurakdagi qayg'u yuzga chiqadi) maqoli kiritildi. Bu maqolda emosiyaning yashash makoni – yurak ekanligi bilan bir vaqtda ushbu negativ emosiyaning fizionomik reprezentatsiyasi ham o'z inikosini topgan.

4. Qayg'udan xalos bo'lish usullari mavjud. *"Mal se pueden llevar las tristezas del ánimo, si no se esfuerzan los descaecimientos del cuerpo"* (aynan: agar tana zaiflashishini yedirib-ichirib tetiklantirilmasa, ruhning qayg'usini olib yurish yomon); *"Si dices tu pena a quien no le pena, es como si te quejaras a madre ajena"* (aynan: agar qayg'ungni senga qayg'urmaganga aytsang, bu go'yoki yot onaga hasrat qilgandek bo'ladi); *Penas contadas, penas aliviadas* (aynan: so'zlangan qayg'u, yengillashgan qayg'u), *"Al desdichado hace consuelo tener compañía en su suerte y duelo"* (aynan: qayg'uda sabr qilish o'z baxting va kulfatingda yo'ldoshga ega bo'lish), *"Pesadumbres na pagan deudas, o no quitan penas, o trampas"* (aynan: o'kinch qarzlarni to'lamaydi, qayg'ularni yoki tuzoqlarni yo'qotmaydi), *"Los penas con pan son menos"* (aynan: qayg'ular non bilan ozayadi); *"Sufrase quien penas tiene, que tiempo tras tiempo viene"* (aynan: kimning qayg'usi bo'lsa, zamon ketidan zamon o'tishi bilan ko'nikadi), *"Nadie se muere de pena"* (aynan: hech kim qayg'udan o'lgan emas), *"Las tristezas no se hicieron para las bestias, sino para los hombres"* (aynan: qayg'u hayvonlar uchun yaratilmagan, balkim insonlar uchun), *"Si te dieron pesadumbre, no la tomes"* (aynan: agar senga qayg'u berishsa, uni olma), *"Pasar uno las penas del Purgatorio"* (aynan: inson mahshargoh g'amlaridan o'tadi). Ushbu semantik guruhdagi maqol va matallarning miqdoriy ko'rsatkichidan ma'lumki, ispanlar negativ emosiyaning inson sog'ligiga salbiy ta'siri yoki ularning paydo bo'lish omillariga emas, ulardan qutilish vositalariga ko'proq e'tibor qaratishadi: Qayg'u kechinmasida inson boshqlarga dil yorish, ovqatlanish va sabr tushunchalari ispan lisoniy ongida dolzarblik kasb etadi. Ovqat iste'mol qilish va vaqt faktori depressiyaga qarshi asosiy vositalardan hisoblanadi. Foniylar dunyodagi g'am-g'ussalar mahshargohdagilarga nisbatan arzimastligi va barcha unda poklanib, qayg'udan forig' bo'lish haqidagi tasalli mazmunidagi diniy falsafa *"Pasar uno las penas del Purgatorio"* nutqiy ifodasida aks etgan. Mavjud faktiv materiallarda qayg'udan xalos bo'lish vositasi sifatida Allohga murojaat g'oyasini ifodalovchi barqaror birlik topilmadi.

5. Qayg'udan keyin yengillik bor. *"El día de placer, vispera de pesar"* (aynan: shodlik kundan so'ng, g'am kunini kut) maqolida o'zbek psixologik va madaniy ongidan farqli ravishda taskin emas, ehtiyotkorlikga chaqiriladi.

6. Qayg'uning "og'irlik" mezonlari bor. Ispan lisoniy ongida ayol va o'yga cho'mish tushunchalari bilan korrelyasiyalanadi: *"No hay mayor pena que perder una mujer hiena"* (aynan: sirtlonday xotinni yo'qotishdan og'irroq qayg'u yo'q), *"Las penas son peores de pensar que de pasar"* (aynan: qayg'uni o'tishiga qaraganda (u haqda) o'ylash juda yomon (og'ir)). Interpretatsiyadan ma'lum bo'ladiki, ispan lisoniy ongida eng og'ir qayg'u erkaklar uchun xotindan ajralib qolish va ikki jins vakili uchun qayg'u haqida o'ylash ekanligi ta'kidlanadi.

7. Qayg'uni doimiy mavjudlik, sabab-oqibat, dialektik nuqtai nazardan tasniflanadi. *"En esta vida desdichada, nadie tiene la felicidad asegurada"* (aynan: bu baxtsiz hayotda hech kimda kafolatlangan baxt yo'q), *"No hay pecado sin pena, ni bien sin galardón"* (aynan: gunoh qayg'usiz bo'lmas, yaxshilik mukofatsiz); *"La pena sigue a la culpa"* (aynan: qayg'u

aybdan keladi); *“Sin penas, todas las cosas son buenas”* (aynan: qayg’usiz, barcha narsalar a’lo); *“Ni pena ni gloria”* (aynan: azob yoq, quvonch yoq), *“A gran salto, gran quebranto”* (aynan: katta sakrash, katta yiqilish) nutqiy ifodalarida ispan lingvomadaniy jamoasining qayg’u emotsiyasiga falsafiy, dialektik nuqtai nazarlari aks etgan. Qayg’uning teologistik manbayini ifodalovchi frazeologizmlar: *amar a Dios en tierra ajena* (aynan: begona yerdagi ma’budni sevmok)

8. Inson qaug’u mashaqqatga yaratilgan. *Las tristezas no se hicierotí para las bestias, sino para los hombres* (aynan: “Qayg’ular hayvonlar uchun emas, balkim insonlar uchun yaralgan”). Ushbu maqol ruhiy azob chekayotganlarga qaratilgan o’ziga xos tasalli formulasi sifatida nutqda qo’llanadi.

9. Qayg’u – kasalliklar kauziyatori. *Mal se pueden llevar las tristezas del ánimo, si no se esfuerzan los descaecimientos del cuerpo* (aynan: agar tananing zaif qismlarini kuchaytirmasang, ruhning qayg’ulari ko’tarilib ketishi mumkin). Odatda, qayg’uli kishi ovqat yemaydi, natijada organizmda fiziologik va ruhiy kasalliklar paydo/xuruj qilishi mumkinligidan qochish uchun ushbu ibora nutqda tez-tez ishlatiladi. *La mucha tristeza acarrea grandes males* (aynan: katta qayg’u katta yomonliklarni keltirib chiqaradi); *dos males tiene y tres si no come* (aynan: uning ikkita qayg’usi bor, agar ovqatlanmasa-uchta); *si se enfada tiene tres males, y si no come, cuatro* (aynan: agar u g’azablansa, unda uchta yomonlik bor, agar u ovqatlanmasa, to’rtta) va hkz.

10. Qayg’u fiziologik eksteriorizatsiyalanadi. *las tristezas del corazón salen al rostro* (aynan: yurakning qayg’ulari yuzga chiqadi); *el que tiene una pena no puede manifestar alegría en el semblante* (aynan: qayg’uga ega bo’lgan kishi yuzida quvonch ko’rsata olmaydi); *tener/poner cara de vinagre/de palo* (aynan: “uzum sirka/tayoq (ko’rinishdagi – muallif izohi) yuzga ega bo’lmoq”).

11. Qayg’u – davomiy. *Andar con las cruces auestas* (aynan: elkada xochlar bilan yurmoq); *avivar uno la pena* (aynan: qayg’uga jon bermoq); *tener una espina clavada* (aynan: qadalgan tikani bo’lmoq); *un clavo saca otro clavo* (aynan: bir mix boshqa mixni chiqaradi); *pasar/poner/soportar/ser un via crucis/un calvario* (aynan: ‘mixlangan xochga chidash’). Mazkur frazemaning ma’nosi: davomli baxtsizlikka duchor bo’lish.

12. Qayg’uning intensivligini ifodalovchi frazemalar: *secarse los ojos* (aynan: ko’zlari qurib qolmoq), *como las penas del infierno (del purgatorio)* (aynan: do’zax azobidek), *estar uno al yunque* (aynan: sandonda bo’lmoq = ikki o’rtada bo’lmoq, suv bilan o’t o’rtasida bo’lmoq); *tener el alma hecha un nudo* (aynan: tugunli yurak bo’lmoq = ruhiy azob chekmoq, yuragi siqilmoq); *quedarse/estar alguien sin padre ni madre ni perrito que le ladre* (aynan: biron kishining otasiz, onasiz, unga huradigan kuchugisiz qolishi); *llorar lagrimas de sangre* (aynan: ‘qonli yoshlar to’kmoq’ juda kuchli azob chekmoq, juda katta qayg’u va azobni his etmoq).

13. Qayg’uda ichki organlar odatiy o’rnini yo’qotadi. *Partirle a uno el corazón* (aynan: biron kishining yuragini bo’lib tashlamoq); *sacar la sangre a uno* (aynan: biron kishining qonini sug’irib olmoq);

14. Qayg’uni yashirish kerak. *Hacer de tripas corazón* (aynan: ichaklarni yurak qilmoq)

15. Qayg’u – jarohat. *Lamerse la(s) herida(s)* (aynan: o’z jarohatini yalamoq), *cerrarse/cerrarsele a alguien la(s) herida(s)* (aynan: biron kishi jarohatlarini qoplamoq). Bu erda *herida* so’zi “azob, qayg’u” metaforik ma’nosida qo’llanmoqda. *Escarbar/hurgar/ahondar/profundizar en la herida/llaga* (aynan: yarani kovlamoq, biron

kishining qayg'usiga yangidan jon kiritmoq). *Respirar/resollar/hablar por la herida* (aynan: o'z azobi, qayg'u haqida gapirmoq)

16. Yolg'on qayg'uning ifodasi: *lagrimas de cocodrilo* (aynan: timsohning ko'z yoshlari)

17. Qayg'uning mifologik obraz, fitonim, suv, qurbonlik hayvoni, rang bilan assotsiatsiyalashuvi kuzatildi: *andar(estar) como los diablos* (aynan: iblislardek yurmoq (bo'lmoq)), *como los flores de un camposanto* (aynan: qabriston gullaridek), *(triste) como la Virgen de las Angustias*; *sentar como un jarro de agua fria*; *ojos de carnero/cordero degollado*, *pasarlas negras*; Qayg'uni o'tkir tig'li narsalar sanchish ma'nosida ifodalovchi frazemalar: *darle a alguien mala espina* (aynan: biron kishiga azobli tikan sanchilmoq) maqolida *espina* ko'chma ma'noda qo'llangan, juda ko'p hollarda *qayg'u*, *alam*, *azob-uqubat*ga sinonim bo'lib keladi. Diniy ikonografiyaga bog'langan, chunki tikan yoki tikanli toj g'am-g'ussaning simvoli.

Keltirilgan semantik modellardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: qayg'u ostguruhlardagi frazeologizmlar obrazli asosi anatomic va fiziologik organlar, teologik hodisa va tushunchalar bilan bog'langan. Ispan mentalitetida qayg'uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish g'oyasi ustuvorlik kasb etadi. Yana bir farqli jihati shundan iboratki, ijtimoiy hayotda voqe bo'ladigan "sun'iy qayg'u" holati zoonomik frazeologik birlikda aks etgan.

Ispan tilida qo'rquv emotsiyasi 'miedo' leksemasi bilan ifodalanib, yunoncha *metus* so'zidan kelib chiqqan va quyidagicha tavsiflanadi: «estado afectivo del que ve ante sí un peligro o ve en algo una causa posible de padecimiento o de molestia para él; Creencia de que ocurrirá o puede ocurrir algo contrario a lo que se desea»: "*sensacion de alerta y angustia por la presencia de un peligro o mal, sea real o imaginario; reselo de que suceda lo contrario a lo que se espera o desea*" ya'ni real yoki xayoliy xavf yoki yovuzlik borligidan hushyorlik va iztirob hisi; kutilgan yoki xohlangan narsaning aksini his qilish [11], "*sentimiento de desconfianza que impulsa a creer que ocurrirá un hecho contrario a lo que se desea*" (<https://languages.oup>), ya'ni subyektga nisbatan xoxlanmagan obyektning borliqda mavjidliligi yoki faoliyati yoki sodir bo'lishi qo'rquv hisini paydo qiladi. 'Miedo' so'zi sinonimlari miqdori 21ta: *temor, terror, pavor, pánico, espanto, horror, alarma, susto, sobresalto, recelo, aprensión, desconfianza, canguelo, turbación, sorpresa, asombro, desasosiego, cobardía* [11], *cajalera, cerote, timidez* [10]. Antonimlari quyidagilar: *valor, valentia, tranquilidad*. Keltirilgan sinonim va antonimlar qatori muayyan ma'no ottenkalaridagi differensial belgilar bilan farqlanadi. Konseptni anglatuvchi til birliklari miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, uning konseptuallashuvi ko'lamli va teranroq amalga oshganini va lingvomadaniy jamoa vakillarining lisoniy kompetensiyasi va madaniyati yuksakligi ko'rsatadi, bunda ifodalovchi so'zlarning faqat shu tilga mansubligi, internatsional leksema emasligi ham e'tiborga olinishi lozim.

Qo'rquvni ifodalovchi FBlar semantikasining kognitiv belgilariga ko'ra quyidagi guruhlar farqlandi:

a) titroq, defekasiya: '*Estar/temblar como un flan*' (aynan: "flandek bo'lmoq"). *Flan* - sut, tuxum va shakar asosli mazali shirinlik, tovoqqa solinganda titrab turadi. '*Temblar como/parecer un azogado*' (aynan. "simob singari titramoq"). Bu frazema uzoq vaqtdan beri qo'rquv sababiga ko'ra odamning haddan tashqari asabiyligini ko'rsatuvchi titroq va talvasani ifodalaydi. "Azogado" atamasi simob bilan ishlagan (arabcha "azzáwq" dan kelib chiqqan) va ilgari ushbu metall bilan aloqada bo'lib kasal bo'lgan odamlarni nazarda tutadi.

Ushbu kasallikning ko'plab alomatlar orasida haddan tashqari qo'zg'alish, titroq yoki asab tizimining o'zgarishi kuzatiladi. *Cagarse/irse por las patas/pencas/la pata/la penca abajo* (aynan: ishtonini ho'llab/bo'qlab qo'ymoq); *temblar las carnes a uno* (aynan: suyaklari titramoq); *hacer temblar la pajarilla a uno* (aynan: ichi titramoq (*pajarilla* - yo'g'on ichak va soxta qovurg'alar orasidagi chap gipoxondriyada joylashgan qon tomir viskusi); *temblar la barba* – (aynan: 'soqoli titramoq')

b) yashirinish istagi: *correr como alma que lleva el diablo* (aynan: shayton olib yuradigan ruh kabi yugur) xuddi shayton odamni jahannamga olib borish uchun ruhini quvib chiqarganday juda tez va katta qo'rquv bilan chopmoq ma'nosida qo'llanadi; *hacer el avestruz* yoki *esconder/enterrar la cabeza como el avestruz* (aynan: tuyaqush qilmoq yoki boshni tuyaqush singari yashirmoq) frazemasida qo'rquv hisi qarama-qarshiliklardan, javobgarlikdan yoki muammolardan qochish orqali ifodalanadi.

c) ichki organlar odatiy joyini o'zgarishi yoki yo'qolishi orqali qo'rquv holatini anglatuvchi frazemalar: *hacer de tripas corazón* (aynan: ichaklar yurak bo'lishi kerak) ushbu iborada yurak buzilganida va qiyin vaziyatni yengib chiqa olmaganda, ichak uni o'rnini egallashi kerakligi ifodalangan, bundan qo'rquv yoki xafagarchilikni yashirishga intilish ma'nosi anglashiladi. *No tener/no quedarle a alguien ni una gota de sangre en las venas/en el cuerpo* (aynan: biron kishi tanasi/venalarida qon tomchisi qolmaslik); *estar con (tener) el alma en la boca/entre los dientes* (aynan: og'izda (tishlar orasida) jon bilan bir bo'lmoq)

d) sovuqni his qilish: *Helársele a alguien la sangre (en las venas)* (aynan: tomirlarda qoni muzlamoq) iborasi qo'rqqanimizda tanamizda sodir bo'layotgan hodisani yaxshi ifoda etadi

e) tananing kichrayishi: *Encogerse el ombligo* (aynan: kindigingni kichraytirmoq); *no llegarle a alguien la camisa al cuerpo* (aynan: ko'ylak tanaga yetmaydi) kishi juda qo'rqqanida, kichrayadi, shunda ular kiyib olgan ko'ylak osilib qoladi, ya'ni teriga tegmaydi.

f) tanada mayda toshmalar paydo bo'lish: *Ser una gallina // carne de gallina* (aynan: g'oz terisi) g'oz terisi yulingach terining ko'rinishi, kishi qo'rqanda unda hosil boladigan mayda toshmalarga nisbat beriladi.

g) ovozning yo'qolishi: *ahogar la voz en la garganta* (aynan: 'ovozini tomog'iga cho'ktirmoq')

h) nutqni yo'qotish, tana organlarining qotib qolishi: *perder uno el habla; quedarse sin habla* (aynan: 'nutqini yo'qotish'); *quedar(se) uno clavado en el suelo* (aynan: 'yerga mixlanganday')

i) nafas olish ritmi o'zgarishi yoki kuchli yurak urishi: *quedarse sin respiración* (aynan: 'nafas olishsiz qolmoq') va hakozi guruhlarga ajratish mumkin.

Ispan tili sohiblari qo'rquvni: a) hayvonlar: *'Miedo cerval'* (ayn. 'kiyik qo'rquvi'); b) o'simliklar: *temblar como la(s) hoja(s) de un árbol* (ayn. 'daraxt barglaridek titramoq'); *meter el garbanzo en el cuerpo* (aynan: 'no'xattni tanaga solmoq'); c) tabiat obyektlari: *'Temor más que a un nubla(d)o* (aynan: 'qora bulutga qaraganda ham ko'proq qo'rqmoq. Bunda "nublado" (bulutli) - ko'p yomg'ir bo'lishi bilan tahdid soluvchi ufqda osilgan katta, juda qora bulutni ifodalaydi. d) parrandalar: *más encogido que pájaro en invierno* (aynan: 'qush qishda qo'rqqandek') va hakozi bilan assosiatsiyalaydi.

Ispan lingvomadaniyatida qo'rquv hisi mavjudligi ma'lum ma'noda ijobiy baholanadi. Masalan, *el miedo guarda la viña/el viñedo* (aynan: 'qo'rquv uzumzorni himoya

qiladi') iborasi jazolanish qo'rquvi yoki noxush holatlarga duchor bo'lishining xulq-atvorga ta'sirini anglatadi. Demak, qo'rquv bizni muvozzantda ushlab ham turadi. *Asustarse de una mosca* (aynan: 'pashshadan qo'rqmoq), *asustarse uno de un pájaro volando* (aynan: uchayotgan qushdan qo'rqish), *asustarse de un ratón* (aynan: 'sichqondan qo'rqish'), 'no fiarse alguien ni de su sombra' (aynan: 'kishining o'z soyasiga ham ishonmaslikgi') misolida qo'rquvni giperbola usulida ifodalanishini ko'rishimiz mumkin. Ruhning tanaga qaytishi qo'rquv hisini yo'qatadi: *volver le a uno el alma al cuerpo*.

Keltirilgan semantik modellardan qo'rquv emotsiyasining fiziologik namoyon bo'lishi inson tomonidan nazorat qilinmasligi; FBlar obrazli asosi fiziologik his qilish va mimika, imo-ishora, harakatlar bilan ifodalangan g'ayrushuuriy harakatlarni aks ettirishi; semantik guruhlar o'zida quyidagi denotatlar: yurak, oyoq, til, yuz, suv va hokazo konkret predmetlarni biriktirishi xulosa qilindi. Mavhum predmetlar faoliyati ta'siri inson tanasidagi muayyan makon va hodisalarda voqe bo'ladi, ushbu jarayonlarni til yordamida tasvirlash orqali mavhum predmetlar idiomatik nomga ega bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Diccionario de refranes, adagios, proverbios de la lengua española. Tomo I – II. Madrid: Libreria de los sucesores de hermando, — 1932.
2. Nurmuxammedov Yu. O'zbek milliy-madaniy dunyoqarashining frazeologik sath aspektidagi tahlili. fil.f.f.f.doktorlik dissertatsiyasi. Samarqand: 2021. —156 b
3. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition. Oxford University Press. 1992.- p.441
4. Баранов А., Добровольский Д. Основы фразеологии. -М.: Флинта, 2014. - 308 с
5. Изард К.Э. Психология эмоций. Пер. с англ. М.: Изд-во МГУ, 1999. – 464 с
6. Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. -Волгоград. 2001.-494 с
7. Испанско-русский фразеологический словарь: 30000 фразеологических единиц/Э. И. Левинтова, Е. М. Вольф, Н. А. Мовшович, И. А. Будницкая; под ред. Э. И. Левинтовой. — М.: Рус. яз., 1985. — 1080 с
8. Туровер Г. Я. Словарь пословиц. Испанско-русский и русско-испанский. М.:Рус. Яз, —Медиа; Дрофа, 2009. —208, [8] с
9. <https://languages.oup>
10. <https://languages.oup.com/google-dictionary-es/>
11. <https://www.wordreference.com>